



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №4



# 2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....	32
<b>A.A. Akbarov, X.R. Aliyev</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....	53
<b>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
<b>Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi</b>	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI .....	64
<b>Namazov Gafur Shokulovich</b>	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI .....	69
<b>Beglayev Uchqun Xurramovich</b>	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI .....	75
<b>Musulmonova Shahlo Nasriddinovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	81
<b>Artikova R.A.</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
<b>Ibragimov G'anjion G'ayratovich</b>	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN .....	93
<b>Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich</b>	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
<b>Айматова Фарида Хуразовна</b>	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
<b>Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li</b>	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	113
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	118
<b>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
<b>Muhammadiyeva Nodira</b>	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
<b>Santjar Abdumurodovich Sattorov</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI .....	139
<b>Allamuratova Perida Maxsetbaevna</b>	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI .....	144
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna</b>	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI .....	152
<b>Alikulov Samar Abdurashidovich</b>	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI .....	159
<b>Karimova Shaxnoza Uktamovna</b>	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI .....	165
<b>Ruziyeva Barno Yadgarovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	168
<b>Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li</b>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ .....	172
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	177
<b>Matmuratova Nasiba Azatovna</b>	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....	181
<b>Pulatov Abdulla</b>	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	185
<b>Nazarov Aziz Avazovich</b>	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ .....	190
<b>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</b>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI .....	197
<b>Omonova Nafisa Qahramon qizi</b>	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION .....	200
<b>Ahrorova Asila</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	207
<b>Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</b>	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI .....	212
<b>Tursunov Rasul Tairovich</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	218
<b>Эргашева Феруза Насруллаевна</b>	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN .....	226
<b>Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna</b>	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY .....	231
<b>Musadjanova Nargiza Abdvoxid qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI .....	238
<b>Saodat Sadriddinova</b>	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	243
<b>Saida Xabibullayeva</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI .....	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI .....	260
Sottarov Abduvali Umirqulovich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Rahmanova Sitara Bahodir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
Turotova Nigora Xolmurod qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSIYALASH VA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	286
Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
Valijonov Akmaljon	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR .....	296
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	303
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО ПАКЕТА .....	308
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI XUDUDIY TARKIBINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI .....	311
Uralov Eliboy Omonovich	
INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI .....	316
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	



# INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI

**Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich**

O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo'jaligi vazirligi  
Bog'dorchilik va uzumchilik  
bo'limi boshlig'i  
[farrux4422495@mail.ru](mailto:farrux4422495@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada meva va uzum ko'chatlarini yetishtirishda an'anaviy hamda "in vitro" texnologiyasiga asoslangan innovatsion usullarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Mahalliy ko'chatchilik xo'jaliklaridagi dolzarb muammolar va xorijdan ko'chat import qilishdagi fitosanitariya xavflari, xususan, tok fillokserasi xavfi o'rganilgan. Turkiyaning muvaffaqiyatli tajribasi asosida sohani huquqiy tartibga solish, raqamlashtirish hamda kasalliklardan xoli, eksportbop ko'chatlar yetishtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** in vitro texnologiyasi, intensiv bog'dorchilik, tok fillokserasi, fitosanitariya xavfsizligi, klon payvandtag, agro sug'urta, raqamlashtirish.

**Abstract.** This article presents a comparative analysis of traditional and innovative methods of growing fruit and grape seedlings based on "in vitro" technology. The current challenges of local nurseries and the phytosanitary risks associated with importing seedlings, particularly the threat of grape phylloxera, are examined. Based on Turkey's successful experience, scientific and practical recommendations are proposed for legal regulation, industry digitalization, and the production of virus-free, export-oriented seedlings.

**Key words:** in vitro technology, intensive horticulture, grape phylloxera, phytosanitary safety, clonal rootstock, agricultural insurance, digitalization.

**Аннотация.** В статье представлен сравнительный анализ традиционных и инновационных методов выращивания саженцев плодовых культур и винограда на основе технологии «in vitro». Исследованы актуальные проблемы местных питомников и фитосанитарные риски при импорте саженцев, в частности угроза виноградной филлоксеры. На основе успешного опыта Турции предложены научно-практические рекомендации по правовому регулированию, цифровизации отрасли и производству безвирусных, экспортно ориентированных саженцев.

**Ключевые слова:** технология in vitro, интенсивное садоводство, виноградная филлоксера, фитосанитарная безопасность, клоновый подвой, агрострахование, цифровизация.

## KIRISH

Qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lgan mevachilik va uzumchilikni rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda agrosanoat majmuasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda global iqlim o'zgarishlari, yangi turdagi o'simlik kasalliklarining tarqalishi va jahon bozorida yuqori raqobat ko'chat yetishtirish tizimiga ilmiy asoslangan, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, meva va uzum ko'chatlarini yetishtirishda sifatli, kasalliklardan xoli hamda yuqori hosildor navlarni ko'paytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy ko'chatchilik usullari ayrim hollarda kasalliklarning tarqalishi, ko'chat sifati va hosildorligining pasayishi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli "in vitro" texnologiyasi asosida ko'chat yetishtirish usuli ko'plab mamlakatlarda samarali va istiqbolli yo'nalish sifatida keng qo'llanilmoqda.

Mazkur texnologiya qisqa muddat ichida sog'lom, viruslardan xoli va bir xil genetik xususiyatlarga ega ko'chatlar olish imkonini beradi. Natijada intensiv bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, hosildorlikni



oshirish hamda eksportbop mahsulotlar yetishtirish uchun mustahkam asos yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy ko'chatchilik tizimini modernizatsiya qilish, xorijiy tajribalarni o'rganish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda respublikamizda mavjud 365 ming gektar mevali bog'lar va 207 ming gektar tokzorlarning atigi 124 ming gektari intensiv usulda barpo etilgan. An'anaviy usulda shakllantirilgan, iqtisodiy jihatdan samaradorligi past va hosildorligi cheklangan bog'-tokzorlar o'rnida bosqichma-bosqich zamonaviy, sanoatlashtirilgan plantatsiyalar barpo etilmoqda [1]. Ushbu maqolada ko'chat yetishtirishdagi an'anaviy hamda "in vitro" texnologiyalariga asoslangan innovatsion yondashuvlarning qiyosiy tahlili, xorijiy tajriba va import qilinayotgan ko'chatlar bilan bog'liq fitosanitariya xavflari ko'rib chiqiladi.

Respublikada meva va uzum yetishtirishni yangi bosqichga olib chiqish uchun yosh bog'larni viruslardan xoli, iqlimga chidamli va yuqori mahsuldor ko'chatlar bilan ta'minlash zarur. 2026–2030 yillarda 60 ming gektar samaradorligi past bog'lar va 27 ming gektar tokzorlar o'rnida yangi zamonaviy plantatsiyalar, shuningdek, 5 ming gektar tog'oldi hududlarida yangi bog'lar barpo etilishi rejalashtirilgan. Bunga erishish uchun yillik ehtiyoj o'rtacha 20 milliondan 50 million donagacha yuqori sifatli ko'chatlarni tashkil etadi.

David Crystal ta'kidlaganidek, zamonaviy qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ham mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, "in vitro" texnologiyasi asosida viruslardan xoli ko'chatlar yetishtirish intensiv bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, viruslardan xoli olma va tok ko'chatlaridan foydalanish hosildorlikni, meva sifati va iqtisodiy samaradorlikni uzoq muddat davomida sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar ko'rsatishicha, tok va mevali daraxtlar uchun ko'chat materiallarining fitosanitariya jihatdan xavfsiz bo'lishi uzumchilik va bog'dorchilikning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tok fillokserasi, viruslar va boshqa zararli organizmlar hosildorlikning pasayishiga olib kelishi mumkinligi sababli, ko'plab mamlakatlarda "in vitro" usulida sog'lom ko'chatlar ishlab chiqarish, sertifikatlash va laboratoriya nazoratini kuchaytirish tizimi joriy etilgan. Ayniqsa, meristema kulturasi va mikroko'paytirish usullari orqali viruslardan xoli ko'chatlar olish samaradorligi 50 foizdan 100 foizgacha yetishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda meva va uzum ko'chatlarini yetishtirishning an'anaviy hamda "in vitro" texnologiyalariga asoslangan usullari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va xorijiy tajribani o'rganish usullaridan foydalanildi. Jumladan, mahalliy ko'chatchilik xo'jaliklari faoliyati, "in vitro" laboratoriyalarining ishlab chiqarish quvvati, ko'chat importi bilan bog'liq fitosanitariya xavflari hamda intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirda faoliyat yuritayotgan 84 ta ko'chatchilik xo'jaliklarining aksariyati urug' va danakdan payvandtag sifatida foydalanib, kuchli o'suvchi ko'chatlar yetishtirmoqda. Bu an'anaviy yondashuv bir qator cheklovlarga ega bo'lib, bugungi kunning iqtisodiy va fitosanitariya talablariga to'liq mos kelmaydi. Xususan, urug' yoki danakdan yetishtirilgan ko'chatlar genetik jihatdan bir xil bo'lmaydi, ularning hosilga kirish muddati uzoqroq davom etadi va daraxtlarning o'lchami yiriklashishi natijasida 1 gektar maydonga ekiladigan ko'chatlar soni cheklanadi. Bundan tashqari, bunday yirik daraxtli an'anaviy bog'larda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hamda hosilni yig'ishtirib olish ko'proq mehnat va xarajat talab qiladi.

Bunga muqobil ravishda, jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan "in vitro" texnologiyasiga asoslangan mikroko'paytirish laboratoriyalarida tayyorlangan klon payvandtagli ko'chatlardan foydalanish hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Ushbu innovatsion usulning eng muhim afzalligi shundaki, u hujayra darajasida ko'paytirish imkonini berib, o'simlikni latent viruslar, bakteriyalar va zamburug'li kasalliklardan maksimal darajada himoyalash imkonini yaratadi. Natijada yuksak immunitetga ega, iqlim sharoitlariga moslashuvchan va sog'lom ko'chatlar yetishtiriladi.

Bundan tashqari, "in vitro" usulida olingan pakana va yarim pakana ko'chatlar maydonda bir xil standartda rivojlanadi hamda ekilganidan so'ng qisqa muddatda, ya'ni 2–3 yil ichida sanoat hosiliga kiradi. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bog'larda 1 gektar maydondan o'rtacha 8–12 tonna meva olinadigan bo'lsa, xuddi shuncha maydonga ekilgan "in vitro" ko'chatlaridan tashkil topgan intensiv bog'lardan 30–40 tonnagacha, ya'ni



2,5–3 barobar ko'proq bir xil kalibrdagi, sifatli va eksportbop hosil olish mumkin [2]. Bu esa cheklangan yer va suv resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlab, agrosanoatda tannarxni pasaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi besh yil davomida respublikamizda 40 million dona ko'chat va payvandtag yetishtirish quvvatiga ega 13 ta "in vitro" laboratoriyasi tashkil etilgan. Biroq buyurtmalar hajmining yetarli emasligi va integratsiya darajasining pastligi sababli ushbu laboratoriyalar o'z quvvatidan to'liq foydalana olmayapti hamda o'rtacha 20 foiz atrofida, ya'ni 2–3 million dona ko'chat ishlab chiqarish hajmida faoliyat yuritmoqda. Millionlab dollar investitsiya kiritilgan Sag Agro va Agro In Vitro kabi yirik laboratoriyalarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani sohada mavjud salohiyatni yanada kengroq ishga solish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois mamlakatimizda ko'chatlarga bo'lgan talabni to'liq qondirish maqsadida Italiya, Turkiya va boshqa Yevropa davlatlaridan ko'chat importi ham saqlanib qolmoqda (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion va an'anaviy yondashuvning asosiy farqlari<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	An'anaviy yondashuv	Innovatsion («in-vitro» va intensiv) yondashuv
Ko'paytirish usuli	Urug', danak va qalamcha orqali (kuchli o'suvchi).	Laboratoriya sharoitida hujayra darajasida («in-vitro»).
Hosildorlik (1 gektar olinganda)	O'rtacha 8-12 tonna.	O'rtacha 30-40 tonna (2,5-3 barobar ko'p).
Kasalliklarga chidamlilik	Kasallik va viruslarga (masalan, filloksera) moyilligi yuqori.	Viruslardan xoli, iqlimga va zararkunandalarga chidamli.
Nav tozaligi	Kafolatlanmagan, mutatsiyaga uchrash ehtimoli bor.	100% genetik toza va kafolatlangan navlar.
Iqtisodiy samaradorlik	Past, yer va suv resurslaridan samarasiz foydalaniladi.	Yuqori, sanoatlashgan va eksportbop mahsulot olinadi.

Turkiya tajribasi ko'chatchilik sohasida qisqa muddat ichida import qiluvchi mamlakatdan eksport qiluvchi mamlakatga aylanish mumkinligini yaqqol ko'rsatadi. 2000-yillargacha yiliga atigi 3–3,5 million dona ko'chat yetishtirgan Turkiya, amalga oshirilgan islohotlar natijasida bugungi kunda yiliga 100 million donadan ortiq yuqori mahsuldor ko'chatlar ishlab chiqarmoqda.

Bu muvaffaqiyatning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- Huquqiy baza va integratsiya. Ko'chatchilik bo'yicha alohida qonun qabul qilingan. Barcha yetishtiruvchilarning FÜAB ga a'zo bo'lishi majburiy etib belgilangan [3].

- Xalqaro e'tirof. Turkiya AIGN ga a'zo bo'lib, xalqaro patentlangan navlarni yetishtirish huquqini qo'lga kiritgan.

- Agro sug'urta. TARSIM tizimi orqali nafaqat hosil, balki ko'chatlarning o'zi ham sug'urtalanadi. Davlat sug'urta polisining 67 foizgacha bo'lgan qismini qoplab beradi [4].

Mahalliy "in vitro" laboratoriyalaridan to'liq foydalanmasdan, muntazam ravishda xorijdan ko'chat import qilish nafaqat iqtisodiy xarajatlarni oshiradi, balki biologik xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, uzumchilik sohasida tok fillokserasi eng katta xavflardan biri hisoblanadi.

Grape phylloxera O'zbekiston va Turkmaniston hududlarida hozircha uchramaydigan zararkunanda sifatida baholanadi. Mamlakatimizdagi tokzorlarning asosiy qismi o'z ildiziga ega mahalliy navlardan iborat bo'lib, ular fillokseraga genetik jihatdan chidamsiz hisoblanadi [5]. Ushbu zararkunanda kirib kelgan taqdirda, tok ildizlarining zararlanishi va hosildorlikning keskin pasayishi kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, filloksera tarqalgan hudud maqomini olish Xitoy, Yaqin Sharq va European Union kabi qat'iy fitosanitariya talablari mavjud bo'lgan bozorlarga eksport imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Bundan tashqari, import qilingan ko'chatlarda ayrim xavfli kasalliklar ham aniqlanmoqda:

- Fransiya va Rossiya orqali – tokning bakterial so'lish kasalligi: Xylophilus ampelinus infection.
- Ispaniya orqali – Arabis mosaic virus, ushbu virus gilos, shaftoli va bodring kabi boshqa ekinlarga ham zarar yetkazishi mumkin [6].

- Misr orqali – Grapevine virus A va barglarning bujmayish kasalligi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz agrosanoat majmuasida mevachilik va uzumchilik tarmog'ining istiqboldagi rivojlanishi ko'p jihatdan ko'chatchilik tizimida qo'llaniladigan yondashuvlarga bog'liq. O'tkazilgan qiyosiy tahlillar shuni

1 Muallif ishlanmasi



ko'rsatadiki, an'anaviy urug' va danak asosidagi ko'chat yetishtirish usulidan bosqichma-bosqich zamonaviy "in vitro" texnologiyalari va klon payvandtaglarga o'tish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biridir.

Bugungi kunda xorijdan ko'chat import qilish amaliyoti qisqa muddatli ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda bog' va tokzorlar uchun fitosanitariya xavflarini yuzaga keltirishi mumkin. Xususan, tok fillokserasi va turli virusli kasalliklarning kirib kelish ehtimoli mavjud. Shu bois mahalliy "in vitro" laboratoriyalarining to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash hamda ilmiy va amaliy sohalar o'rtasida uzviy integratsiyani yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro, xususan, Turkiya tajribasiga tayangan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ko'chatchilik sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish va yagona uyushma yoki klaster tizimini shakllantirish.
2. Har bir ko'chatning "onalar bog'i"dan iste'molchigacha bo'lgan harakatini kuzatish imkonini beruvchi raqamli monitoring tizimini joriy etish.
3. Agro sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish hamda xalqaro tan olingan navlarga nisbatan mualliflik huquqlarini ishonchli himoya qilish.
4. Respublika hududlarida filloksera va boshqa xavfli patogenlarga qarshi strategik zaxira bazasini yaratish.
5. Mahalliy Sag Agro va Agro In Vitro kabi laboratoriyalar salohiyatidan yanada samarali foydalanish va ularning ishlab chiqarish quvvatini oshirish.
6. "In vitro" texnologiyalarini keng joriy etish orqali viruslardan xoli, yuqori hosildor va eksportbop ko'chatlar yetishtirishni rag'batlantirish.

Qisqacha aytganda, ko'chatchilik tizimida innovatsion yondashuvlarni to'liq joriy etish orqali respublikamiz iqtisodiy samaradorligi past bog'lar o'rnida yuqori hosilli plantatsiyalar barpo etishga erishadi. Bu nafaqat ichki bozorni sifatli va xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlaydi, balki biologik xavflarning oldini olgan holda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ishonchli eksportyor davlat sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari (2023–2024-yillar kesimida mevali bog'lar va tokzorlar maydoni).
2. Teshabayev, Sh., & Xamdorov, K. (2022). Intensiv bog'dorchilik va "in vitro" texnologiyalari: muammo va yechimlar. Toshkent: "Agro-Ilm" jurnali, № 4, 15–22-betlar.
3. FÜAB rasmiy hisobotlari. Türkiyede Fidancılık Sektörü Raporu. Ankara, Turkiya, 2023.
4. TARSIM rasmiy ma'lumotlari. Qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimi yillik hisoboti, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi ma'lumotlari. Eksport-import qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarida fitosanitariya xavfsizligi, 2024.
6. European and Mediterranean Plant Protection Organization. Global Database: Grape phylloxera, *Xylophilus ampelinus* infection, Arabis mosaic virus. Paris, 2023.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---